

## Bir va ikki urug'pallali o'simliklar poyalarining anatomik tuzilishi

**To'lanboyeva Marjona Davronbek qizi** Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 1-bosqich 103-guruh talabasi.

**Аннотация:** эта тема является важным разделом растениеводства, в котором представлена информация о строении стеблей односемянных и двудольных растений, расположении и функциях тканей в них. пройдено.

**Ключевые слова:** односемянные растения, двусемянные растения, строение стебля, ксилема и флоэма, камбий, эпидермис, кора.

**Annotation:** this topic is an important branch of plant studies, and information is presented about the structure of the stem of plants with one and two seeds, the location and functions of the tissues in them.

**Keywords:** one-seeded plants, two-seeded plants, stem structure, Xylem and phloem, Cambium, epidermis, bark.

O'simliklarning poyasi — ularning asosan yer ustida joylashgan, mexanik tayanch va o'tkazuvchi vazifalarni bajaruvchi Bir urug'pallali o'simliklar poyasi oddiyroq tuzilishga ega bo'lib, markaziy o'zagi bo'ylab sochma holda joylashgan yopiq o'tkazuvchi tutamlarga ega. Ikki urug'pallali o'simliklarning poyasi esa murakkabroq bo'lib, o'tkazuvchi tutamlar konsentrik tarzda tartiblangan va kambiy qatlamining mavjudligi sababli ikkilamchi o'sishga qodir. Bir va ikki urug'pallali o'simliklarning poyasi tuzilishi, o'sish jarayoni va funksional xususiyatlari jihatidan bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Bir urug'pallali o'simliklar poyasi haqida umumiy ma'lumot quidagilar:  
Anatomik tuzilishi: Bir urug'pallalilar (masalan, bug'doy, makkajo'xori) poyasida o'tkazuvchi tutamlar markaziy o'zakda tartibsiz joylashgan. Ushbu tutamlar yopiq bo'lib, ular kambiy qatlami bilan qoplangan emas. Shuning uchun bir urug'pallalilar poyasi ikkilamchi o'sishga qodir emas.

To'qimalar: Epidermis (tashqi himoya qatlami), po'stloq (ko'pincha yaxshi rivojlanmagan), sklerenkima va markaziy qismdagi parenxima hujayralaridan iborat.

Funksiya: Mexanik mustahkamlik va oziq moddalar o'tkazish.

Ikki urug'pallali o'simliklar poyasi haqida umumiy ma'lumot quidagilar:

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 12. December 2024

Anatomik tuzilishi: Ikki urug‘pallalilar (masalan, eman, o‘rik) poyasida o‘tkazuvchi tutamlar halqa shaklida joylashgan. Tutamlar ochiq bo‘lib, kambiy qatlami mavjud. Bu poya ikkilamchi o‘shishga qodir bo‘lib, yog‘och hosil bo‘ladi.

To‘qimalar: Epidermis (himoya vazifasi), po‘stloq (asosiy oziq moddalar zaxirasi), kambiy, floema (asimilyatsiya mahsulotlarini o‘tkazuvchi), ksilema (suv va minerallarni o‘tkazuvchi) va markaziy silindrdan iborat.

Funksiya: Mexanik tayanch, moddalar o‘tkazish va ikkilamchi o‘shish.

Bir va ikki urug‘pallali o‘simliklar poyalarining anatomik tuzilishidagi asosiy farqlar quidagilar:

1. O‘tkazuvchi tutamlarning joylashishi: Bir urug‘pallalilarda tartibsiz, ikki urug‘pallalilarda halqasimon.
2. Kambiy qatlami: Bir urug‘pallalilarda yo‘q, ikki urug‘pallalilarda bor.
3. Ikkilamchi o‘shish: Bir urug‘pallalilarda yo‘q, ikki urug‘pallalilarda mavjud.

Bu o‘ziga xosliklar o‘simliklarning o‘shish strategiyalari va ekologik moslashuvchanligini belgilaydi. Ushbu bilimlar o‘simlikshunoslik, agronomiya va ekologiya sohalarida keng qo‘llaniladi.

**Xulosa:** Bir va ikki urug‘pallali o‘simliklarning poyasi anatomik tuzilishi ularning ekologik moslashuvchanligi va hayotiy jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bir urug‘pallalilar (masalan, bug‘doy, makkajo‘xori) va ikki urug‘pallalilar (masalan, eman, yong‘oq) poyalarining tuzilishidagi farqlar ularning ekologik moslashuvchanligini va rivojlanish jarayonlarini tushunishda katta ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N.K., Abdullayev M.A. "O‘simliklar anatomiyasi va morfologiyasi", Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2015.
2. Gulomov U.G. "Botanika: O‘simliklar hayoti", Toshkent: Fan, 2008.
3. Smith, A. Lee, B. Cell Structure and Function. Academic Press, 2021.
4. Raven, P. H. Johnson, G. B. Biology of Plants. W.H. Freeman, 2018.
5. Tanford, C. Reynolds, J. Nature's Robots: A History of Proteins. Oxford University Press, 2017.